



REGIONAL ASPECTS OF DEMOGRAPHIC PROCESSES (IN THE CASE OF FERGONA REGION)

Diyora A. Maqsudova

Master Student

Department of Economic and Social Geography

National University of Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, geographical location, coefficient, promille, perinatal period, specialization.

Received:

Accepted:

Published:

Abstract: The demographic situation of the population of Fergana region is very complicated and is growing in different regions. To control such processes as much as possible in the event of a media impact, and to formulate strategic plans for the future.

DEMOGRAFIK JARAYONLARNING HUDUDIY JIXATLARI (FARGONA VILOYATI MISOLIDA)

Diyora A. Maqsudova

Magistrant

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи

O'zbekiston Milliy universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, geografik o'rн, koeffitsiyent, promille, perinatal davr, ixtisoslik.

Annotatsiya: Farg'ona viloyati aholisining demografik holati juda murakkab holatda bo'lib hududlar bo'yicha o'ziga hos holatda ko'paymoqda. Bunday jarayonlarni bil vosita tasir ko'rsatgan holatda imkon boricha nazorat qilish va istiqbolliy rejalarini tuzish strategik faoliyatlarni shakillantirish.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ (В СЛУЧАЕ ФЕРГОНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Диёра А. Максудова

Магистрант

Кафедра экономической и социальной географии

Национальный университет Узбекистана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, географическое положение, коэффициент, промилле, перинатальный период, специализация.

Аннотация: Демографическая ситуация населения Ферганской области очень сложная и в разных регионах растет. Максимально контролировать такие

KIRISH

XXI asir globallashuv davrida O'zbekistonni asosiy bo'g'inlaridan bo'lган Farg'ona viloyatida demografik holat boshqa xududlarga qaraganda o'ziga hos rivojlanish va tendetsiyalar bilan ajralip turadi. Bunday ajralib turishiga asosiy sabab geografik o'rni va tarixdan rivojlanib kelayotgan o'ziga hos demografik jarayonlarining o'rni katta. Hozirgi kunda bunday demografik jarayonlar viloyatni har bir tumani uchun o'ziga hos jihatlari ko'zga yaqqol tashlanadi.

Farg'ona viloyati aholi soni joylashuviga qarab tarixiy va geografik joylashuviga qarab shakillanib kelgan. Hozirgi kunda bunday joylashuv murakkab infratuzulma holatiga kelib hududlar kesimi bo'yicha bir biridan farqlanadi.

ASOSIY QISM

Bunday joylashuvlarni shakillanishida etnik tarkibi kelip chiqish urf odatlariga ham bog'liqdir. Axoli tarkibida judaxam ko'p tafovutlarni hududlar bo'yicha yoshi, jinsi va boshqa katagoriyalar bo'yicha guruhlanadi va bular bir biridan uzviy farq qiladi[1].

Farg'ona viloyati aholisi 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 3820 ming kishini tashkil qilgan bo'lib bu ko'rsatkich 2016-yil 1-yanvar holatida esa 3505,3 ming kishini tashkil qilgan. Bundan ko'rinish turubdikiy besh yil mobaynida Farg'ona viloyati aholisi 685,3 ming kishiga ko'paygan. Bunday jarayonlar yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa hududlar bo'yicha katta va kichik tafavutlarga olib keladi[2].

Viloyatida 2020-yilning yanvar-mart oylarida 18,7 ming ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), 2019 yilning mos davriga 16,9 ming ta bola tug'ilgan, 2020 yilning yanvar-mart oylarida 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,0 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 1,4 promillega ortgan.

Tug'ilish umumiy koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan Uchko'pik tumani (19,5 promilledan 22,8 promillega) va Dang'ara tumani (19,8 promilledan 22,6 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, deyarli barcha shahar va tumanlarda o'sish kuzatildi. Bundan ko'rinish turibdikiy Farg'ona viloyatida demografik holat musbat holatni qayt etmoqda. Barcha hudutlarda tug'ulish jarayoni yildan yilga o'smoqda[4].

Farg'ona viloyatida 2020 yilda 4,1 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2019 yilning mos davriga nisbatan ko'payish yuz bergen. Xar 1000 aholiga nisbatan o'lim umumiy koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga 4,8 promilleni tashkil etgan .

O'lim umumiy koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Farg'ona shahri (5,4 promilledan 5,8 promillega), Beshariq (4,4 promilledan 4,8 promillega), va Toshloq tumanlarida (4,2 promilledan 4,4 promillega) o'sgan. Aynan vafot etganlarning o'lim sabablari ochiq aytganda 65,7 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,5 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 9,4 foizi o'simtalardan, 4,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,0 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,1 foizi boshqa kasalliklardan vafot etganligini ko'rish mumkun.

Viloyatida po`yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 175 nafarni tashkil etib, ularning 25,7 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 15,4 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 22,9 foizi tug`ma anomaliyalardan, 3,4 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 26,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etganligi diqqatga sazovordir. Bundan ko'rinish turubdikiy Farg'ona viloyatini sharqiy provinsiyalarida o'lim koffisenti yildan-yilga oshmoqda. Bunday jarayonlar boshqa xududlarda ham o'ziga hos ravishda shakillanmoqda.

Farg'ona viloyatida 2020 yilning aholining tabiiy o'sishi 14,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 2,1 ming kishiga (2019 yilning yanvar-mart oylarida 12,5 ming kishi bo`lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish surati yildan yilga ortmoqda. Bunday jarayonlar viloyatni barcha xududlarida o'ziga xos ravishda shakillanmoqda. Shakillanishida ta'sir etuvchi omillar etnik tarkibi, xududiy kasalliklar, xudutta iqtisodiy va ijtimoiy taminlanganlik darjasini, axolini mexnat bilan bantligi, aholini mehanik harakati va boshqa omillar bilan ifodalaniladi[6].

2020 yilning oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 4861 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsenti 5,2 promilleni tashkil etdi. Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2019 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 93,2 foizga kamaygan bo`lib, Uchko`prik (kamayish sur'ati 76,5 foiz) va Yozyovon (kamayish sur'ati 77,2 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.

Farg'ona viloyatining shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo`limlari tomonidan 797 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo`lib, 1000 ta aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti Qo`qon shahri (1,4 promille), Qo`shtepa tumani (1,1 promille) Marg'ilon shahrida (0,9 promille) kuzatildi. Bunday jarayonlar boshqa hududlarda ham yildan-yilga oshmoqda. Bunga asosiy sabablar yosh oilalarini katta hayotga tayyor bo'limgan holatlarda nikoh qurish va dunyoviy va diniy bilimlarni yetarli bo'limgani sababli hayotga yengil tomonlama qarashidadir[5].

Yuqorida aytip o'tilgan barcha demografik jarayonlarda shuni bilishimiz mumkunki yaqin kelajakda aholini keskin va tez suratta ko'payishini ko'rishimiz mumkun. Bunda jarayonlar esa

Farg'ona viloyatida turli xil muammolar va jarayonlarga sabab bo'ladi. Kelajakda axoli ko'payishi muammo bo'ladimi yo'ki yo'qmi degan savol hammani qiyinasa kerak?

Ilmiy tadqiqotlarga qaraydigon bo'lsak aholi ko'payishi muammo emas. Aksincha, xududlarni rivojlanishi va o'ziga xos strategik xudud bo'lishiga sabab bo'ladi. Buni bir yo'l bilan izoxlash mumkun. Aholi nima degan savolga javob izlaymiz. Aholi bu mehnat resurusi, istemolchi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kuch va boshqa funksiyalari mayjud.

Jaxon xaritasiga qaraydigon bo'lsak asosan rivojlangan xududlar AQSH, Xitoy va Yaponiya kabi davlatlar axolisini ko'pligini muammo emas balki kuch sifatida qaraydi.

Masalan AQSHda 320 milyondan ortiq aholisi bo'lsa ham ko'plab dasturlar orqali emigrantlarni jalg qilmoqda. Bundan ko'rinish turubdikiy axoli o'sish suratiga ijobiy tomonlama yondaship kelajak avlod uchun istiqbolli farovon hayotga zamin yaratish kerak. Buning uchun axoli o'rtasida turli dasturlar ishlap chiqib reproduktiv salomatligi, intelektual qobiliyati va zamonga hamohang milliy va etnik urf odatlardan chiqmagan holatda ruxiy va pisihalogik imunitetni shakillantirish zarur.

Yosh oilalarda oilaga bo'lgan muhabbat va sadoqt tushunchalarini shakillanturish zarur. Buning uchun maktab va kollej darsliklariga oila to'g'risida ta'limga ixtisoslashgan darsliklarni joriy qilish kerak. Insonning ongiga mannaviy, ruxiy va pisihalogik jihatdan asosiy etibor berilishi zarur bo'lgan jixat tasir kuchini boshqarish va to'g'ri yo'naltira olishda yordam berish zarur [7].

Hozirgi kunda yoshlarga turi darajadagi kiriditlar berish va ularni rag'bartlantirish zarur. Farg'ona viloyati aholisini joylashishida shaxarlarni salmog'i yuqori bo'lgani sababli shaxarlarni infratuzulmasiga qaytatan baho berish zarur. Bunga sabab asosan yosh avlod markazga intiladi ya'ni shaxarga. Bunday jarayonlar esa aholini bir joyga to'planishi va u yerda juda tez suratta ko'payishiga ya'ni demografik portlashiga sabab bo'ladi[3].

XULOSA

Bunday masalalarni yechimini toppish uchun qishloq hayotini ham shaxar hayotiga o'xshsh infratuzulmaga ega qilish zarur.

Farg'ona viloyatida qishloq yerlari cheklanganligi tufayli bu yerlarga sa'noat ichlab chiqaruvchi tarmoqlarni joylashtirish maqsadga muofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ergashov. A. E. Aholini takror ko'payishini iqtisodiy va statistik taxlili. (Magistirlik dessertatsiyasi). – 17-76 b.
2. Soliyev A. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –T.; Universitet, 2014.
3. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. –T.; Noshir, 2019.
4. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). –T.: Fan va texnologiya, 2010. 276 b.

5. www.migration.uz
6. www.stat.uz
7. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
8. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). Historical and ethnographic characteristics and socio-spiritual factors of visiting tourism in Uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
9. Go'dalov, M. R. (2014). Nature of Jizzakh region and its protection.-T.:“. *Science and technology*.
10. Yunusova, G. N. (2019). THE MODERN LINGAFON ROOMS AND THEIR SOFT WARE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 333-341.